



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN HOKIMINING
Q A R O R I

Angor tumani, At-Termiziy ko‘chasi 58-uy. 190200, tel.: (+99876) 312-20-12, angor@exat.uz,

2022 - yil 30 - aprel

203-8-109-Q/22

Angor tuman hokimligi

Surxondaryo viloyati hokimining 2022 yil 30 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida” 195-sonli qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 276-8-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta‘minlash haqida

Viloyat hokimining 2022 yil 30 apreldagi 276-8-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Surxondaryo viloyati hokimining 2022 yil 30 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish choratadbirlari to‘g‘risida” 195-sonli qarori ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida”gi 276-8-0-Q/22-sonli qarori ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Surxondaryo viloyat hokimining mazkur qaror bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzurida Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining (keyingi o‘rinlarda — Agentlik) maqomi, vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligi, faoliyatini tashkil etish, shuningdek, Agentlik rahbarlarining funksional vazifalari hamda faoliyat yuritish tartibini nazarda tutuvchi O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay

ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi to'g'risidagi nizom; Agentlikning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy boshqarmalari, tuman (shahar)larda Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazlari (keyingi o'rinda — Markaz) faoliyatini tashkil etish, asosiy vazifa va funksiyalari, huquq va javobgarligini belgilashni nazarda tutuvchi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi to'g'risidagi namunaviy nizom;

mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimi yordamchilarining (keyingi o'rinda — hokim yordamchilari) asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishlarini nazarda tutuvchi Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha tuman (shahar) hokimining yordamchisi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi namunaviy nizom;

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanish tartibini belgilashni nazarda tutuvchi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining jamg'armasi to'g'risidagi nizom;

hokim yordamchilari faoliyatini samarali tashkil etish va baholab borish imkonini beruvchi "Onlayn mahalla" elektron platformasiga ma'lumotlar bazasi integratsiya qilinadigan hamda ushbu integratsiyalashgan tizimdan real vaqt rejimida (onlayn) foydalana oladigan davlat organlari va tashkilotlarining ro'yxati tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Surxondaryo viloyati hokimining 2021 yil 12 sentyabdagi "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 28-avgustdagi "Mahalliy ijroiya hokimiyati organlari rahbarlari o'rinbosarlarining funksional vazifalari hamda faoliyatining eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari to'g'risidagi namunaviy nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 548-sonli qarori ijrosini ta'minlash to'g'risida"gi 141-8-0-q/21-sonli qarori ijrosini ta'minlash haqida tuman hokimining 2021 yil 17 sentyabrdagi 165-8-109-Q/21-sonli qaroriga quyidagi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilsin:

a) 1-ilovasidagi:

9-bandning "z" kichik bandi yettinchi xatboshisi chiqarib tashlansin;

sakkizinchi va to'qqizinchi xatboshilar tegishincha yettinchi va sakkizinchi

xatboshilar deb hisoblansin;

Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari tomonidan o‘zaro hamkorligi ta‘minlanadigan tashkilotlarning hududiy bo‘linmalari ro‘yxatining 4-bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

b) 2-ilovasidagi 37 — 39-pozitsiyalari chiqarib tashlansin;

s) 5-ilovasi bilan tasdiqlangan tuman hokimining o‘rinbosari tomonidan o‘zaro hamkorligi ta‘minlanadigan tashkilotlarning hududiy bo‘linmalari ro‘yxatining 8-bandi o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin;

d) 11-ilovasining 9-bandidagi “e” kichik bandining o‘n oltinchi xatboshisidagi “O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining Tadbirkorlar murojaatlarini ko‘rib chiqish qabulxonalari” so‘zlari chiqarib tashlansin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Mamayusupov zimmasiga yuklansin.

Hokim



SH.B.ABDULLAYEV